



XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA BANK VA TASHKILOTLARARO IQTISODIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Abdilxatov Ulug‘bek Abdulquddus o‘g‘li

*Andijon davlat texnika instituti,
iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) 3-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy tajriba asosida bank va tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish va takomillashtirish yo‘llari mualliflar tomonidan yoritilib o‘tilgan. Xorijiy tajribalarga asoslangan holda, banklarning mijozlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash va xorijiy tijorat banklarining mijozlarga xizmat ko‘rsatish tajribasi bo‘yicha ilmiy tadqiqodlar olib borilgan.

Kalit so‘zlar. Xalqaro tajribalar, tijorat banklari, elektron pullar, moliyaviy xizmat turlari, talab va taklif

Bugungi kunda, tijorat banklari tabora rivojlanib borishining asosiy tasiri shuki, xorijiy bank tajribalari amaliyotga keng qollanishi boyisidir. Barchamizga ma‘lumki, rivojlangan davlatlarning nufuzli tijorat banklarini mamlakatimizni moliya bozoriga kirib kelishi o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Ushbu turli xorijiy davlatlar tajribasi asosida bank tizimlarini rivojlanishi birinchi navbatda to‘lov vositalari va xizmatlarini kengaytirish orqali masofadan xizmat ko‘rsatish natijasida banklarning operatsion xarajatlarini kamaytirishda o‘z samaradorligini oshirishga olib kelmoqda. Shuni takidlashimiz joizki, jahon miqyosidagi tijorat banklari muomaladagi naqd pullar miqdorini qisqartirish o‘rqali elektron pullar hisob-kitoblarni takomilashib bormoqda.

Shu bilan birga, xorijiy tajribalar amaliyotga joriy etilishi natijasida, bank va tashkilotlararo to‘lov tizimlari bilan bog‘liq bank xizmatlarining samaradorligi tobora rivojlanib bormoqda. Bu esa mamlakatimizdagi faoliyat olib borayotgan



tijorat banklar samaradorligini oshirish uchun Xalqaro tajribalarga tayanib faoliyat yuritish maqsadga muvofiq deya olamiz. Shuning uchun barcha tijorat banklar mijozlarga 24/7 soat xizmat ko'rsatish tizumi orqali zamonaviy to'lov tizimlaridan foydalana olish imkoniyatlari yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yildagi 11 Sentabr kungi PF-158-sonli farmonida Milliy iqtisodiyotni liberallashtirish borasidagi izchil islohotlarni davom ettirish "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ko'zda tutilgan ustuvor yo'nalishlar va maqsadlarda ham o'z aksini topgan. Jumladan, strategiyada barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, nufuzli xalqaro tashkilotlar va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlikni jadallashtirish hamda xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali 2030 yilgacha milliy iqtisodiyotning ikki baravar o'sishini ta'minlash, mamlakatimizning investitsion jozibadorligini oshirish, hamkorlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo'shilish, shuningdek, Yangi O'zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish belgilangan.[1]

Ushbu qaror ijrosini taminlash yuzasidan tijorat banklar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga yangi bank xizmatlari amaliyotga tadbqiq etildi. Shuning bilan birga mijozlarga bir necha turdagi kredit, factoring, offerdrive, revolver hamda lizing hizmat turlaridan foydalanish bo'yicha taqdimotlar o'tkazildi. Buning natijasida korhona va takilotlar tomonidan ushbu moliyaviy hizmat turlaridan keng foydalanish yo'lga qoyildi. O'zbekistonda yangi bank mahsulotlarini keng joriy etish tendensiyalari va muammolarini nafaqat bank tashkilotlarida, balki moliya institutlarining boshqa sub'ektlari doirasida ham amal qilishini o'rganish muhim masala hisoblanadi deb yurtimiz olimlaridan biri takidlab o'tgan.[2] Agarda biz tijorat banklari tomonidan moliyaviy kredit mablag'larini ajratilishi bo'yicha (1-



jadval) tahlillariga nazar tashlaydigon bo'lsak, 2023 yilga nisbatan 2024- yilda 13% kredit ajratilish miqdori ortganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu tahlil ko'rsatkichlarini tubdan o'rganilganda, jami ajratilgan kreditning 2023- yilda 471 406 mlrd so'm miqdorida ajratilgan bo'lsa, shundan 148 621 mlrd so'm jismoniy shaxslar uchun, qolgan 322 784 mlrd so'm miqdorida kredit yuridik shaxslarga ajratilganligini kuzatishimiz mumkin. Bu esa umumiy kreditlarni 68.5 % yuridik shaxslar salmog'iga to'g'ri kelgan bo'lsada, aksincha jismoniy shaxslarga 31.5% tashkil etgan.

Shu bilan birga tijorat banklari tomonidan xorijiy tajribalarga suyangen holatda tadbirkorlikka jalb etish strategiyasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, bozordagi talab va takliflar ustida marketing izlanishlar olib borilishi natijasida 322 784 mlrd so'mni yangi tashkil topgan korhona – tashkilotlarga tadbqiq etilgan, bu jami yuridik shaxslarga ajratilgan kreditning 95.6% ni tashkil qiladi. Demak har bir yangi bank xizmatlarini joriy etishdan avval bozordagi talab va takliflar ustida ilmiy izlanishlar va tadqiqodlar olib borilishi lozim.


1-Jadval

Jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar to'g'risida kreditlar turlari bo'yicha ma'lumot			
			<i>mlrd. so'm</i>
Ko'rsatkich nomi	2023	2024	O'zgarishi (foizda)
Jami kredit	471 406	533 121	13%
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar	148 621	177 532	19%
Ipoteka kreditlari	58 177	67 730	16%
Mikroqarzarlar	24 525	42 369	73%
Iste'mol kreditlari	44 589	40 719	-9%



Ta'lim kreditlari	4 745	5 858	23%
Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar	16 395	19 523	19%
Boshqa kreditlar	191	1 334	599%
Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	322 784	355 589	10%
Yangi tashkil topgan tashkilotlarga (yuridik shaxslar) ajratilgan kreditlar	308 765	330 211	7%
Lizing va faktoring	2 034	2 767	36%
Banklararo kreditlar	1 165	715	-39%
Mikrokreditlar	5 281	17 111	224%
Sindisiyalashtirilgan kreditlar	5 539	4 785	-14%

2024-yil yakuniga kelib jami 533 221 mlrd so'm kredit ajratilgan bo'lib ushbu 355 589 mlrd so'm miqdorida yuridik shaxslarga ajratilgan yani 66.7 % ni tashkil etadi. Shuningdek jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit 177 532 mlrd so'm, bu esa qolgan 32.3% ni tashkil qiladi. 2024-yilda ham yangi tashkil togan yuridik shaxslarga umumiy kredit miqdorining 61.9 % miqdorida ajratilgan bo'lsa, qolgan 25 378 mlrd so'mi bo'shqa yo'nalishdagi kredit turlari bo'yicha ajratilgan. 2023-yilga nisbatan Yangi tashkil topgan tashkilotlarga ajratilgan kredit miqdori 7% ga o'sishiga erishilgan. Bu kredit turlari orasida eng yetakchi sur'atda o'sib borgan kredit turi "Mikrokreditlar" bo'lgan. Aksincha eng quyi ko'rsatgichlar "Banklararo kreditlar" -39% ga hamda "Sindisiyalashtirilgan kredit" turi 2023 yil 2024-yilga nisbatan ushbu ko'rsatgich -14 % ga keskin kamayganligini ko'rishimiz mumkin.



Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkunki, har bir tijorat banklari xorijiy tajribalarga suyangan holda xizmat ko'rsatuvchi mijozlarga jozibador bank xizmat turlarini tadbiq etib borish lozim ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuni taqidlab o'tamizki, bugungu kundagi mijozlar yangi bank xizmat turlariga chanqoqligi va qiziqishi ortib bormoqda. Shunigdek jahon miqqiyosidagi axborot almashuvi tezligi va internet foydalanuvchilar salmog'i ortib borishi xorijiy tajribalarni tijorat banklariga tadbiq etishga majburlanoqda. Bu esa o'z-o'zidan mijozlarni qulay, tez, sifatli, masofadan bank xizmatlaridan foydalanib borishiga undamoqda desak mubolag'a bo'lamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida Prezidentining Farmoni [https://lex.uz/ru/docs/-6600413]
2. Tijorat banklarida yangi bank xizmatlarini joriy etish va rivojlantirish yo'llari i.f.d (PhD) Umarov Abdulquddus Abdilxatovich



3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti [<https://cbu.uz/uz/statistics/>]
4. <https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonning-jahon-banki-bilan-hamkorligi>.
5. Abdullaeva Sh.Z., Qoraliev T.M., Ortiqov U.D. "Bank resurslari va ularni boshqarish". Monografiya.-Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009